NUTQIY ETIKET TUSHUNCHASINING OMMALASHUVI

Hikmatova Gulandom
Buxoro viloyati Buxoro tumani Maktabgacha va maktab ta`limi bo`limi tasarrufidagi 6-umumiy o`rta ta`lim maktabining Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tilshunoslikda "Etiket" tushunchasi oltmishinchi yillarning oxirida rivojlana boshlandi, bunda nutqiy xatti-harakatlarning o'ziga xos xususiyatlari, taktikalari, nutq aktlari, dialogli nutqlar va matnlar, shaxslararo ijtimoiy munosabatlar, maxsus funksiyalar va ma'nolarga ega bo'lgan muloqot birliklarning keng doirasini qamrab olgan nutq odob-axloqi tushunchasi tilshunoslikka kirib keldi va tilshunos olimlar tomonidan o'rganildi. Nutqiy etiketlarni o'rganish sohasida katta ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan tilshunos olim N. I. Farmanovskaya ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: "Nutqiy etiket bu-ijtimoiy va milliy nutqiy xatti-harakatlarni tartibga soluvchi, rasmiy va norasmiy muloqot jarayonida shaxslarning mavqeyi va shaxsiy munosabatlariga muvofiq aloqalar o'rnatish va saqlab qolishdir"[1].

Nutq odob-axloq qoidalari etiket tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, u quyidagicha tavsiflanadi: "Etiket"- frantsuz tilidan olingan bo'lib, yorliq, belgi, etiketka ma'nolarini anglatadi.

Etiket bu-odamlarga bo'lgan munosabat bilan bog'liq bo'lgan muomala qoidalaridir (boshqalar bilan muomala qilish, salomlashish shakllari, jamoat joylarida o'zini tutish, odob-axloq qoidalari va boshqa shu kabilar). Etiket ta'rifiga ko'ra, antropotsentrik va dialogikdir, u odamlarning bir biri bilan munosabati va muomala qilishi hamda etik jihatdan muhim narsalarga (kiyim, soch turmagi va boshqalar) bog'liq bo'lgan haqiqiy dunyoning qismini aks ettiradi. Axloqiy lug'atda etiket ta'rifida verbal va noverbal nutqning namoyon bo'lishi birlashadi, bu odatiy hisoblanadi, chunki aloqa jarayonida og'zaki, og'zaki bo'lmagan va «moddiy» etik munosabatlardir. Nutqiy etiket yaqqol bir standartlashtirilgan nutqiy madaniyat namunasi sifatida namoyon bo'ladi va shu o'rinda tanishishlar, tanishtirishlar, manzillar, salomlar, xayrlashish, uzr, minnatdorchilik va boshqa odatiy holatlarni misol tariqasida ko'rishimiz mumkin. Ushbu holatlarda ishlatiladigan iboralar, nutqiy aktlar standartdir, garchi rasmiy,norasmiy aloqa muhitiga, qabul qiluvchining ijtimoiy xususiyatlariga va boshqalarga nisbatan eng munosib vositalarning keng miqyosli to'plamdan doimiy tanlash imkoniyati mavjud. Shunday qilib, nutq odob-axloq birliklaridan foydalanishda standart va ijodiy tanlov ushbu belgilar tizimining muhim xususiyati sifatida birlashtiriladi.[2]

Darhaqiqat, odob-axloqqa doir dastlabki tushuncha va ta'limotlar Sharqda, to'g'rirog'i qadimgi Sharqda iste'molga kiritilgan. Ushbu ma'noda Sharqni axloqiy ta'limotlar beshigi deyish, ham mumkin. Bunga "Kalila va Dimna", Konfutsiy o'gitlari, "Qobusnoma"dagi ibratli hikoya va rivoyatlar, xalq maqol va ertaklari, matallari misol bo'la oladi. Nutq madaniyati bilan bog 'liq muammolar fanimiz tarixida antik davr tilshunosligiga borib taqaladi. O'zbek tilshunosligida nutqiy etiketni ifodalovchi vositalar, boshqa ko'plab xalqlar tilshunosligi tarixida bo'lgani kabi, dastavval, madaniyatshunoslik, odob-axloq me'yorlari qatorida o'rganilgan.

---

[1]Сайдуллаева Сурайё Сержиддиновна Ўзбек ва инглиз тилларида нутқий этикетларнинг Лингвомаданий хусусиятлари

[2] Чаушев А.С "Коммуникативно-прагматические особенности речевого этикета в различных лингвокультурах (на материале карачаево-балкарского, русского и английского языков)" Диссер. канд. фил. наук, Волгоград 2008,194с